UDK: 069:94(575.1)+323(575.1)

DAVLAT ARBOBLARI FAOLIYATIGA DOIR MUZEYLARNING O‘ZBEKISTON TARIXINI YORITISHDAGI AHAMIYATI

F.X. Mirhakimova

Maqolada O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin tutgan siyosiy yetakchilar va davlat arboblari faoliyatiga bag‘ishlangan memorial hamda uy-muzeylar faoliyati tahlil etilgan. Muzeylarning tashkil etilish jarayoni, shakllanish bosqichlari va bugungi kundagi faoliyati yoritilgan. Mazkur muzeylarda saqlanayotgan eksponatlarning XX asr hamda mustaqillik davri O‘zbekistonining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini aks ettirilishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *memorial muzey, uy-muzey, siyosiy yetakchi, davlat arbobi, muzey ekspozitsiyasi, muzeyshunoslik, tarixiy shaxs, arxiv hujjatlari.*

В статье анализируется деятельность мемориальных и дом-музеев, посвящённых политическим лидерам и государственным деятелям, сыгравшим важную роль в истории Узбекистана. Освещаются процессы создания, этапы становления и современное состояние этих музеев. Показано, что их экспозиции отражают политическую, социально-экономическую и культурную жизнь страны XX века и периода независимости, а также способствуют сохранению исторической памяти.

Ключевые слова: *мемориальный музей, дом-музей, политический лидер, государственный деятель, музейная экспозиция, музееведение, историческая личность, архивные документы.*

KIRISH

Jamiyat taraqqiyoti va tarixiy xotirani shakllantirishda muzeylar, ayniqsa, memorial va uy-muzeylar alohida o‘rin tutadi. Ular nafaqat moddiy va ma’naviy merosni saqlash, balki muayyan davr ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettirish, tarixiy shaxslarning faoliyatini keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ilmiy va ma’rifiy maskan sifatida xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston tarixida muhim iz qoldirgan siyosiy yetakchilar va davlat arboblari faoliyatiga bag‘ishlangan muzeylar milliy tarixni chuqur anglashda beqiyos ahamiyatga ega.

XX asr va mustaqillik davri O‘zbekiston tarixida Fayzulla Xo‘jayev, Yo‘ldosh Oxunboboyev, Usmon Yusupov, Sharof Rashidov hamda Islom Karimov kabi davlat va jamoat arboblari muhim o‘rin egallaydi. Ularning hayoti va faoliyati nafaqat o‘z davrining siyosiy jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq, balki mamlakat taraqqiyotining muhim bosqichlarini ham o‘zida aks ettiradi. Mazkur tarixiy shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgan memorial va uy-muzeylar bugungi kunda tarixiy manba sifatida katta ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada aynan ana shunday muzeylarning tashkil etilishi, rivojlanish bosqichlari, ekspozitsiya xususiyatlari hamda ularning ilmiy, ma’rifiy va tarbiyaviy funksiyalari tahlil qilinadi.

Shuningdek, muzey eksponatlari orqali O‘zbekistonning XX asr va mustaqillik davri siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotini yoritish imkoniyatlari ochib beriladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida milliy tarixni saqlash, uni yosh avlod ongiga singdirish va tarixiy xotirani mustahkamlashda memorial muzeylarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Shu jihatdan, mazkur maqola memorial muzeylarning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy asosda yoritishga qaratilgan.

MATERIAL VA USULLAR

XX asrning 60-yillaridan boshlab siyosiy liderlar va davlat arboblariga aloqador muzeylarni tashkil etish bo‘yicha hukumat qarorlari amalga oshirildi. Shuningdek, ba’zi siyosiy liderlarning ham memorial, ham uy-muzeylari tashkil etildi. Masalan, 1964-yil 17-oktyabrdagi O‘zbekiston hukumatining “Marg‘i-

lon shahrida Yo‘ldosh Oxunboboyev memorial muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori [1. B. 25], 1987-yil 25-dekabrdagi O‘zbekiston hukumatining “Y.Oxunboboyev uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi 533-sonli qarori [2. B. 257], O‘zbekiston SSR Madaniyat ministrligining 1988-yil 14-yanvardagi “Y.Oxunboboyev uy-muzeyini tashkil etish haqida”gi 8-sonli buyrug‘i [3. B. 2], O‘zbekiston hukumatining 1971-yil 17-iyundagi “Farg‘ona viloyatida U.Yusupov memorial muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi 264-sonli qarori [4. B. 9], O‘zbekiston Madaniyat ishlari vazirligining 1992-yil 10-martdagi “Yangiyo‘l shahridagi U.Yusupov muzeyi to‘g‘risida”gi 75-sonli buyrug‘i [5. B. 3], Jizzax viloyati hokimining “Jizzax shahrida Sh.Rashidov yodgorlik muzeyi tashkil etish haqida”gi farmoyishi [6. B. 18], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yilda “Buxorolik boy savdogar uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi [7. B. 32], 2017-yil 27-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100-yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. PQ-2854-sonli qaror doirasida Sharof Rashidov ilmiy-ma’rifiy yodgorlik uy-muzeyi tashkil qilindi [8. B. 1]. O‘zbekiston Prezident Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 25-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida”gi PQ-2744-sonli qaroriga [9] muvofiq Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasi tashkil qilindi.

Maqolada qo‘yilgan muammo O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan R-2296, R-2487, R-837, M-7, M-38 raqamli fond materiallari asosida yoritib berildi. Muammoni tadqiq etishda tarixiylik prinsipiga tayanildi, qiyosiy-mantiqiy tahlil usulidan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Jamiyat taraqqiyoti va millat rivojiga hissa qo‘shgan siyosiy yetakchilar va davlat arboblari ijtimoiy faoliyati orqali o‘zi yashagan davr va tizim tarixida ahamiyatli iz qoldiradi. Fayzulla Xo‘jayev, Yo‘ldosh Oxunboboyev, Usmon Yusupov, Sharof Rashidov, Islom Karimov kabi yirik davlat va jamoat arboblari ana shunday tarixiy shaxslar sirasiga kiradi. Sovet davrida faoliyati kechgan davlat arboblari tuzum mustabid siyosatiga imkon qadar qarshi turib, millat va yurt manfaatlarini himoya qildilar. Ba’zi birlarining taqdiri esa o‘zlari xizmat qilgan tuzumning qurboni bo‘lish bilan yakunlandi. Ta’kidlash joizki, ular hayotlarining so‘nggi damlarigacha xalqiga, Vataniga xizmat qilib, abadiy barhayot siymolarga aylandilar.

O‘zbekiston ravnaqi yo‘lida xizmat qilgan, yuqorida nomi keltirilgan davlat arboblarining xotirasi xalq va vatan e’tirofi sifatida yaratilgan memorial va uy-muzeylarida abadiylashtirildi. Ushbu muzeylarda jamlangan tarixiy ashyolar va materiallar bevosita ular yashagan davr va ijtimoiy muhit, rahbarlik faoliyati, maishiy turmushi haqida guvohlik beradi. Aynan bu muzeylar ushbu shaxslar taqdiri orqali O‘zbekiston tarixining ma’lum bir bosqichini, siyosiy yetakchilarning tarixdagi o‘rnini yoritishga xizmat qiladi.

Yo‘ldosh Oxunboboyev memorial muzeyi. Davlat va jamoat arbobi Y.Oxunboboyevning xotirasini abadiylashtirish maqsadida 1964-yilda O‘zbekiston hukumatining “Marg‘ilon shahrida Yo‘ldosh Oxunboboyev memorial muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [10. B. 238]. 1974-yilda Marg‘ilon shahrida muzey uchun 3-qavatli bino qurilishi boshlandi [11. B. 195]. 1975-yil 30-iyunda Y.Oxunboboyev tavalludining 90-yillik yubileyi munosabati bilan muzey binosi foydalanishga topshirilgan [12. B. 27]. Muzey 1979-yilga qadar Oybek nomidagi O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyining filiali, 1979-yildan Farg‘ona viloyati o‘lkani o‘rganish muzeyining filiali sifatida faoliyat ko‘rsatgan [13. B. 33].

Muzeyning umumiy maydoni – 560 m², muzey binosi – 587 m², ekspozitsion qism – 114 m² ni tashkil etgan. Muzeyda “Ko‘hna Marg‘ilon”, “Qadimiy Marg‘ilondagi hunarmandchilik” [14. B. 60], “Y.Oxunboboyevning 1885–1939-yilgacha bo‘lgan hayoti va faoliyati” [15. B. 95], “Y.Oxunboboyevning urush arafasi va urush yillaridagi faoliyati”, “O‘zbekistondagi suv inshootlari faoliyati”, “Mustaqillik yillarida Marg‘ilon shahrining madaniy hayoti” deb nomlangan ko‘rgazma zallari va 99 o‘rinli kinozal faoliyat yuritgan [16. B. 5]. Eksponatlarning umumiy soni – 4016 ta, uning 750 tasi ko‘rgazma qilish uchun muzey zallariga qo‘yilgan [17. B. 34].

Muzey ko‘rgazmasida Farg‘ona viloyat harbiy gubernatorining mahalliy aholiga joriy qilgan e’lonlari va majburiy qarorlari namoyish etilgan. Eksponatlarda O‘zbekiston tarixidagi 1916-yil milliy ozodlik qo‘zg‘oloni bilan bog‘liq ma’lumotlar, xususan, 1916-yil 25-iyunda podsho Nikolay II ning “Imperiyadagi begona xalqlar erkak aholisini harakatdagi armiya turgan rayonlarda mudofaa inshootlarini va harbiy aloqa yo‘llarini qurish ishlariga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo‘lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish to‘g‘risida”gi farmoni nusxasi vitrinaga qo‘yilgan [18. B. 13]. Bu safarbarlikka qarshi norozilik harakatlarida 20–25 ming qo‘zg‘olonchilar qatorida Y.Oxunboboyev ham qatnashgan [19. B. 12]. Qo‘zg‘olon ishtirokchilari shafqatsizlar-

cha jazolandilar. Zalda namoyish etilgan “Marg‘ilonda mingboshining o‘ldirilishi” kartinasida shu manzara tasvirlangan bo‘lib, xalq g‘azabi ko‘lami haqida tomoshabinda yaqqol tasavvur yaratadi [14. B. 47]. Alohida bo‘limda qo‘zg‘olon qatnashchilarining suratlari va ularning jazolanishiga oid hujjatlar o‘rin olgan [14. B. 48].

Shuningdek, “Y.Oxunboboyevning 1885–1939-yilgacha bo‘lgan hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi fotosuratlar, shaxsiy buyumlari, unga sovg‘a qilingan buyumlar hamda ish kabineti interyerining mebellari asli namoyishga qo‘yilgan [15. B. 95]. 2006-yilda Y.Oxunboboyev memorial muzeyi Marg‘ilon san’at muzeyi, Marg‘ilon shahar tarixi muzeyi bilan birlashtirilgan [20. B. 210].

Yo‘ldosh Oxunboboyev uy-muzeyi. O‘zbekiston hukumatining “Y.Oxunboboyev uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston SSR Madaniyat ministrligining “Y.Oxunboboyev uy-muzeyini tashkil etish haqida”gi buyrug‘i asosida [21. B. 18] Toshkent shahrida Y.Oxunboboyev 1930–1943-yillarda yashagan uyda 1992-yil 1-sentyabrda muzey tashkil etildi [22. B. 2].

Muzeyning umumiy maydoni – 267,3 m², ekspozitsiya maydoni – 189,6 m², fond saqlash xonasi – 9,5 m² bo‘lgan [23. B. 50]. Muzey 2 ta bino va 8 zaldan iborat bo‘lib, memorial va tarixiy qismlarga bo‘linadi. Memorial qism – mehmonxona, oshxona, yotoqxonalarni o‘z ichiga olgan. Uy-muzeyning memorial qismidagi bog‘li hovlida Y.Oxunboboyevga haykal o‘rnatilgan [24. B. 2].

Qayd qilish joizki, Toshkent shahar yong‘in xavfsizligi boshqarmasining 2005-yil 25-avgustdagi “Korxona ishini tugatish, binodan foydalanishni taqiqlash haqida”gi 391-sonli qarori va 27/64-1616-sonli xatiga asosan hamda so‘nggi yillar mobaynida Y.Oxunboboyev uy-muzeyi asosiy faoliyati ko‘rsatkichlari haddan ziyod pasayib ketganligi, muzey fondlarining saqlanish holati talab darajasida emasligi, aholining mazkur uy-muzeyga tashrifi deyarli to‘xtab qolganligi, uy-muzey eksponatlari va fondlarini saqlash me’yorlarining buzilganligi sababli uy-muzey faoliyati 2005-yil 30-avgustdan tugatilgan [25. B. 37]. Uy-muzeyi eksponatlari va jihozlari turli muzey va tashkilotlarga berilgan [26. B. 38].

Usmon Yusupov memorial muzeyi. O‘zbekiston hukumatining “Farg‘ona viloyatida U.Yusupov memorial muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga [28. B. 75] muvofiq 1972-yilda Kaptarxona qishlog‘ida U.Yusupov memorial muzeyi tashkil etildi. Muzey bir qavatli binoda joylashgan bo‘lib, umumiy maydoni – 700 m², ekspozitsiya zallari – 500 m², fond xonasi – 60 m², maydon va ma’muriy-xo‘jalik xonalariga 140 m² joy ajratilgan [29. B. 54]. Muzey faoliyati davrida eksponatlar soni 275 ta bo‘lib, shundan 4 tasi rassomlik, 5 tasi grafika, 1 tasi haykaltaroshlik, 4 tasi etnografik, 12 tasi suratlar, 132 tasi hujjatlar va 117 tasi boshqa turdagi eksponatlar bo‘lgan [30. B. 184].

Muzey bo‘limlarida U.Yusupovning bolalik va o‘smirlik davriga oid hujjatlar va fotosuratlari, Yangiyo‘l shahridagi paxta tozalash zavodidagi faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar, shaxsiy hujjatlari, quruvchilar kasaba uyushmasidagi faoliyatini aks ettiruvchi fotosuratlar joylashtirilgan [15. B. 99].

Shuningdek, ekspozitsiyada U.Yusupovning XX asr 30–40-yillari qishloq xo‘jaligi sohasidagi faoliyati yoritilgan, xususan, 1939-yil 1-avgustdan 17-sentabrgacha 45 kun davomida 160000 kishi mehnati asosida, hashar yo‘li bilan qurilgan 350 m² lik Katta Farg‘ona kanali qurilishi jarayoni aks etgan fotosuratlar mavjud [31. B. 6]. Muzey vitrinasida Usmon Yusupovning Katta Farg‘ona kanalining paxtachilik va respublika iqtisodini yuksaltirishdagi roli va ahamiyati haqida 1939-yil 26-mayda “Pravda” gazetasida chop etilgan “Ajoyib xalq harakati” [32. B. 22] nomli maqolasi joy olgan.

Shuningdek, eksponatlar orasida yozuvchi K.Simonovning U.Yusupovga yozgan “Doston zarblari” ocherki haqidagi maktubi, U.Yusupovning evakuatsiya qilingan qurilish obyektlaridagi fotosuratlari, 1941–1945-yillarda O‘zbekistonda 9 ta GES qurilishi va Farhod GESi qurilishi haqidagi gazeta parchalari qo‘yilgan [32. B. 33]. Muzey Farg‘ona viloyati o‘lkashunoslik muzeyining tarkibida faoliyat yuritgan [33. B. 2]. Yangiyo‘lda tashkil etilgan uy-muzeyida U.Yusupovga tegishli mebel va shaxsiy buyumlar, kitoblar, asl hujjatlar va fotosuratlardan iborat eksponatlar joy olgan [32. B. 58].

2017-yil 11-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2017–2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga [34] ko‘ra, Usmon Yusupov memorial muzeyi faoliyati tugatildi va eksponatlari Farg‘ona viloyati tarixi, madaniyati va davlat muzeyi fondiga topshirildi.

Usmon Yusupov uy-muzeyi O‘zbekiston hukumatining 1974-yil 24-iyundagi, O‘zbekiston KP Markaziy qo‘mitasi va Ministrlar Kengashining “O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyining filiali sifatida Usmon Yusupov uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori asosida tashkil etilgan. Mazkur qarorga muvofiq, 1975-yil 1-martda Toshkent viloyati Yangiyo‘l ko‘chasi 6-uyda Usmon Yusupov uy-muzeyi ochildi [35. B. 102; 36. B. 3]. 1978-yildan O‘zbekiston hukumatining “Respublikadagi muzeylar ishining holati va faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga binoan U.Yusupov uy-muzeyi O‘zbekiston SSR Xalqlar do‘stligi muzeyining filiali sifatida [37. B. 19] faoliyat yuritdi. 1992-yil 13-yanvarda Xalqlar do‘stli-

gi muzeyi tugatilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10-son qaroriga asosan muzeyning mustaqil faoliyati belgilandi [38. B. 2]. 1992-yil 1-apreldan O‘zbekiston Madaniyat ishlari vazirligining “Yangiyo‘l shahridagi U.Yusupov muzeyi to‘g‘risida”gi buyrug‘i bilan Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufiga olindi [39. B. 40].

Aytish joizki, U.Yusupovning ota-onasi 1945-yilgacha Yangiyo‘l shahri Lermontov ko‘chasidagi kichik hovlida yashagan. 1945-yilda Yangiyo‘l Ijroiya qo‘mitasi Yangiyo‘ldagi yerlardan U.Yusupovning onasi Oyimnisa Saydaliyevaga uy qurish uchun qaror chiqargan. 1917-yilgacha bu yerlar paxta va yog‘-moy zavodlarining xo‘jayini moskvalik graf V.Alekseyevning ish boshqaruvchisi Popilyanskiyning uy qo‘rg‘oni bo‘lib, keyinchalik buzib tashlangan va yerlardan foydalanilmayotgan edi. 1945-yilning yozidan boshlab bu yerda uy qurila boshlandi. 1946–1947-yillarda yordamchi xo‘jalik xonalari qurilgan. Yusupovlar oilasi bu yerda 1947–1966-yillarda yashagan [40. B. 126]. Umumiy maydoni – 9380 m², ekspozitsiya uchun 217 m², eksponatlarni saqlash uchun 92 m² joy ajratilgan. 1982-yil 1-martda U.Yusupov uy-muzeyi hovlisida bronza haykali va ikki tilda yodgorlik lavhasi o‘rnatilgan [41. B. 36].

Muzey memorial uy va ekspozitsiya zali, majlislar zali, xodimlar ishlaydigan xona va isitgich tarmog‘i saqlanadigan xonalardan iborat [42. B. 3].

Memorial uy – kirish xonasi, mehmonxona, U.Yusupovning ish xonasi, yotoqxona, qizlar xonasi, umr yo‘ldoshi Yuliya Stepanenko xonasidan iborat. 1960-yilda yotoqxona va veranda memorial qismga qo‘shilgan. Mehmonxona markazida stol va stullar to‘plami, shiftida hashamatli qandil mavjud. Muzeyning mehmonxonasi kinozalga aylantirilib, U.Yusupovning hayoti, faoliyatiga oid hujjatli va badiiy filmlar namoyish qilingan.

Shuningdek, xonada U.Yusupovga taqdim qilingan buyumlar, jumladan, marshal Rokossovskiyning sovg‘asi – yog‘och soat, general Petrov tomonidan sovg‘a qilingan chinni buyumlar va boshqa anjomlar joy olgan. U.Yusupovning ish xonasi faoliyati davridagi holatda saqlangan. Xonada Polshada ishlab chiqarilgan, o‘rtadagi tortma ochib-yopilganda ikki tomonidagi javonlar qulflanib va ochiladigan g‘aroyib ish stoli [43. B. 2], stol ustida oila a’zolarining fotosuratlari, ko‘zoynak, stol lampasi, ayiqchalar aks ettirilgan marmar siyohdon kompozitsiyasi, telefon, qalamlar, paxtaga oid kunlik hisobotlarning asl nusxalari, uy egasi umrining oxirlarida o‘qigan gazeta, jurnallar bor. Shuningdek, xonada divan, kreslo va yumshoq stullar to‘plami, kitoblar bilan to‘la ikkita kitob javoni mavjud [44. B. 2]. U.Yusupov o‘zbek mumtoz adabiyotini yaxshi bilgan va mutolaa qilgan. Eksponatlar XX asrning 50–60-yillarida kishilarning kundalik hayoti, davlat arbobining ijtimoiy faoliyati, do‘stlari doirasi, qiziqishlari, jamiyatdagi mavqeyi haqida ma’lumot beradi.

U.Yusupovning qizlari Inessa va Zoyalarning xonasida qizil choyshab solingan ikkita yog‘och yotoq jihozi joylashtirilgan. Jihozning yonida milliy bezak tushirilgan so‘zanalik mato devorga osilgan. Xonada ingichka yog‘ochdan yasalgan, oynavand kiyim javoni bor. Oila ukraincha bezakli naqshlar tushirilgan sochiq bilan bezatilgan stullardan foydalangan [45. B. 23].

Ekspozitsiyaning ko‘rgazma zallarida Usmon Yusupovning bolalik va yoshlik yillari, ishlab chiqarishdagi faoliyati, partiya va kasaba uyushmalaridagi faoliyatiga oid materiallar, oila a’zolarining fotosuratlari [15. B. 101] hamda 1962-yilda Yangiyo‘l bog‘dorchilik-uzumchilik sovxoziga direktor bo‘lgan davridagi ish kabineti haqida ham ma’lumotlar taqdim qilingan [46. B. 12].

2020-yil fevral oyida U.Yusupov tavalludining 120-yilligi nishonlanishi arafasida Toshkent viloyati va Yangiyo‘l shahar hokimiyati tarafidan Usmon Yusupov uy-muzeyi hovli hududi joriy ta’mirlandi [44. B. 12].

Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeyi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng sovet qatag‘on siyosati qurboni bo‘lgan davlat va jamoat arboblarining memorial va uy-muzeylarini tashkil etishga e’tibor qaratildi. Jumladan, 1991-yilda yirik davlat arbobi Fayzulla Xo‘jayev hayoti va faoliyatining e’tirofi sifatida u yashagan hovli uy-muzeyga aylantirildi. Atoqli davlat va siyosat arbobi F.Xo‘jayev 1886-yil 1-iyulda Buxoro shahrida boy savdogar oilasida tug‘ilgan. U Buxoro Xalq Respublikasi Xalq komissarlari sovetining raisi (1920–1924), tashqi va ichki ishlar noziri (1920–1922), harbiy ishlar noziri (1922–1924), O‘zbekiston SSR Xalq komissarlari sovetininig birinchi raisi (1925–1937) kabi lavozimlarda faoliyat olib borgan [27. B. 523].

Buxoro me’morchiligining XIX asr oxiriga oid ajoyib namunalaridan biri sanalgan ushbu hovli G‘oziyon guzarida joylashgan. G‘oziyon guzari shaharning 200 dan ziyod mahallasidagi eng katta guzarlardan bo‘lib, 50 ta xonadonni birlashtirgan. Bu guzarda shaharning boy savdogarlari va mashhur kishilari yashagan [44. B. 14]. 1891-yilda Buxoroning boy savdogari Ubaydulla Xo‘jayev tomonidan qurilgan uy mahallaning yirik inshootlaridan biri sanalgan. Dastlab “hovli durun” hududida 48 ta darvoza mavjud bo‘lgan, biroq 1990-yilga kelib ularning atigi 12 tasi saqlanib qolgan. Yozgi mehmonxona 50 m², ikkinchi yashash xonasi 8 metrni tashkil etadi. Xona eshik va derazalari Bag‘dod usulida yasalgan [47. B. 115].

Birinchi marta 1930-yillarda Fayzulla Xo‘jayevning uyi me’mor R.Abdurasulov boshchiligidagi jamoa to-

monidan tekshirildi, fotosuratchilar Yuditskiy, Zavalishin tomonidan uyning o‘lchamlari hamda suratlari olindi. Uy-muzeyni ta’mirlash ishlari rejasi tuzildi.

Savdogar uyi uchun dahshatli kunlar 1937–1938-qatag‘on yillariga to‘g‘ri keldi. Bu payt ular oilasi uchun fojiali yillar bo‘ldi. Sovet qatag‘on siyosati oqibatida “xalq dushmanlari”ning uyi qarovsiz holda qoldi. Devoriy naqshlar yemirildi, oshxona, xizmatchilar xonasi, omborxonalar, uyning qudug‘i, yerto‘la eshik va derazalari yo‘qolib keta boshladi. Aytish joizki, F.Xo‘jayev hayotligida, 1925-yilda bu hovli turli tashkilot va idoralarga bo‘lib berilgan edi. 1925-yilda F.Xo‘jayev xizmat burchi yuzasidan Samarqandga ishlash uchun ketganda, uyda Buxoro matbaasi (tipografiya) joylashtirilgan. 1926–1928-yillarda Buxoro qizlar hunar maktabi; 1928–1933-yillarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlaydigan tojik texnikumi; 1933–1937-yillarda Lenin nomidagi rus tilida ta’lim beradigan maktab; 1937–1966-yillarda Karl Marks nomidagi maktab; 1966–1975-yillarda Buxoro pedagogika bilim yurti va uning yotoqxonasi; 1975-yildan musiqa maktabi binosi vazifasini bajargan. 1980-yildan mazkur uy holati butunlay tang ahvolda edi. 1986-yildan boshlab Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi tomonidan bir necha marotaba yuqori tashkilotlarga uyni saqlab qolish uchun murojaat qilindi. Bu harakatlar natijasida uy-muzey tashkil etildi [48. B. 2].

1989-yilda muzey-qo‘riqxona tarkibida uyni ta’mirlash ishlari bo‘yicha “Usto” jamiyati tashkil qilinib, Sayfulla Zoirov boshchiligidagi 15 nafar malakali ishchilar 2 yil davomida ta’mirlash ishlarini amalga oshirishdi [47. B. 114] va uy-muzey hududida yashayotgan 3 ta oila Buxoro viloyat hokimiyati tomonidan boshqa joylarga ko‘chirildi.

1991-yilda Buxoro shahri A.To‘qay ko‘chasining 70-uyida buxorolik boy savdogar uy-muzeyi tashkil etildi [7. B. 32]. Muzey maydoni 3 gektar bo‘lib, yer maydoni 1323 m², binolar maydoni esa 557 m² ni tashkil etadi [49. B. 24]. 1991-yil F.Xo‘jayev uy-muzeyida yangi ekspozitsiya tashkil etish uchun ish boshlanadi. “XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi buxorolik savdogarning uy-muzeyi” nomi ostida Buxoro savdogarlari, savdo-sotiq, xo‘jalik hayoti, turmush tarzi, madaniyati, kiyim-kechaklari haqida ma’lumot beruvchi ekspozitsiya tashkil etildi [44. B. 14]. Muzey ekspozitsiyasi joylashgan me’moriy binolar kompleksida Buxoroning XX asr boshlaridagi tarixi, shuningdek, bu uyda tug‘ilib, voyaga yetgan F.Xo‘jayevning hayoti va faoliyati yoritib berilgan.

Ekspozitsiyada XIX asr oxiri va XX asr boshi “Buxoroda hunarmandlarning faoliyati”, “Xo‘jayev xonadoni ayollari taqdiri” va “Unutilgan buxoroliklar” deb nomlangan ekspozitsiya O‘zbekistonning taniqli davlat jamoat arbobi F.Xo‘jayevning oilasi misolida yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 22-fevraldagi “F.Xo‘jayev tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qaroriga [50. B. 1] ko‘ra muzeyga Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeyi nomi berildi [51].

2000-yil 1-yanvarda muzey hududi va ekspozitsiya maydoni kengayishi natijasida muzey Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasining alohida filialiga aylantirildi [52. B. 5]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi 975-sonli qaroriga binoan F.Xo‘jayev uy-muzeyi “Boy savdogar xonadon uy-muzeyi” nomi ostida qayta tashkil etildi [34]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-oktyabrda Qorako‘l tumanida bo‘lgan saylovoldi uchrashuvida uy-muzeyga F.Xo‘jayev nomini qaytarish taklifi berildi [53]. 2023-yilda muzey to‘liq restavratsiya va konservatsiya qilindi. 2024-yil 28-sentyabrda “Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeyi” deb qayta nomlandi [54. B. 7]. Ushbu muzey sovet siyosiy qatag‘oni qurbonlarining xotirasini abadiylashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Sharof Rashidov muzeyi. O‘zbek xalqining munosib farzandi, yetuk davlat arbobi, atoqli yozuvchi Sh. Rashidovning yodgorlik muzeyi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining “Jizzax shahriga Sharof Rashidov byustini o‘rnatish to‘g‘risida”gi buyrug‘i, “Sharof Rashidov tavalludining 75-yilligini nishonlash haqida”gi qarori hamda Jizzax viloyati hokimining “Jizzax shahrida Sh.Rashidov yodgorlik muzeyini tashkil etish haqida”gi farmoyishiga [55. B. 186] muvofiq tashkil etilgan. Mazkur muzey 1992-yil 6-noyabda Jizzax shahrida ochilgan [56. B. 12].

1993-yil 23-sentyabrda Jizzax viloyat hokimining 350-F-sonli farmoyishiga ko‘ra Jizzax viloyati o‘lkashunoslik muzeyi tarix bo‘limi binosi atrofida san’at bo‘limiga qo‘shimcha bino qurishga qaror qilindi [57. B. 10]. Lekin bu ish turli sabablarga ko‘ra amalga oshirilmadi. Muzey Jizzax viloyati o‘lkashunoslik muzeyining san’at bo‘limi binosida tashkil etildi. Muzey maydoni – 260 m², ekspozitsiya maydoni – 210 m² [58. B. 19] bo‘lib, 14 bo‘limdan iborat [59. B. 82].

Muzey ekspozitsiyasida Sh.Rashidovning bolalik davridan to umrining oxirigacha bo‘lgan faoliyati yoritilgan. Dastlab muzeyda 1073 ta eksponat bo‘lib, shundan 7 tasi rassomlik, 9 tasi grafika, 7 tasi haykaltaroshlik, 40 tasi amaliy san’at namunalari, 200 tasi suratlar, 17 tasi etnografik buyumlar, 66 tasi boshqa hujjatlar edi [60. B. 88]. 1992-yilda muzey ekspozitsiya zaliga ochilish davrida 1908 ta eksponat qo‘yilgan [61. B. 24]. 1999-yilda muzeyning asosiy va ilmiy yordamchi fondidagi umumiy eksponatlar soni 2082 tani tashkil etadi [62. B. 17]. Asosiy fonddagi eksponatlar 743 ta, yordamchi fond 1330 ta eksponatdan iborat [63. B. 18]. 2001-yil oxirida jami eksponatlar soni 2114 tani tashkil etgan [64. B. 11].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-martdagi “Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sh.Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarorida Jizzax shahrida adib memorial muzeyini tashkil etish va unga tutash hududni obodonlashtirish vazifalari belgilab berildi [20. B. 135].

Muzey 2018-yil Sh.Rashidov tavalludi nishonlanishi arafasida rekonstruksiya qilindi. Muzeydagi eksponatlarning umumiy soni 2700 dan ortiqdir. Muzey yonida Sh.Rashidov davlat xizmati davrida foydalangan temir yo‘l vagoni joylashgan. Vagonning inventarizatsiyasi asl shaklida saqlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev muzeyga tashrif buyurib, undagi ko‘rgazmalar, bu yerda yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishib, memorial muzeyning “Faxriy mehmonlar kitobi”da quyidagi yozuvni qoldirgan: “Xalqimizning buyuk farzandi, atoqli davlat va yozuvchi Sh.Rashidov fidoyi rahbar, betakror shaxs edi. Sh.Rashidov xalqimiz xotirasida mangu saqlanib qoladi. Bugun Jizzax shahrida o‘z faoliyatini boshlayotgan Sh.Rashidov xotira muzeyi ham ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qilishiga ishonaman” [65. B. 1].

Sharof Rashidov ilmiy-ma’rifiy yodgorlik uy-muzeyi. Jizzax shahrida Sharof Rashidov ilmiy-ma’rifiy yodgorlik uy-muzeyi faoliyat yuritadi. Muzey Sh.Rashidovning ota-onasi Rashid ota va Qo‘ysinoy ona Xalilovlarga tegishlidir. Sharof Rashidovning rafiqasi Xursanoy G‘ofurovna tashabbusi bilan 1979-yilda eski qum-suvoq uy buzib, yangilangan. Mazkur muzey O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-martdagi qarori [8. B. 1] bilan Jizzax shahrining Sh.Rashidov tumanida 2018-yilda tashkil etildi. Muzey bo‘limlarida Sh.Rashidovning hayoti, ijodi va faoliyati, o‘zi tomonidan yozilgan avtobiografiyasi, diplomlari, ko‘krak nishonlari, shaxsiy buyumlaridan taroq, ko‘zoynak, perolari va deputatlik guvohnomalari, davlat tadbirlariga kiygan kiyimlari, Sh.Rashidovning rafiqasi va oilasiga bag‘ishlangan eksponatlar, Estoniyadan berilgan esdalik sovg‘a va Avstraliyada sovg‘a qilingan “zebra terisi” qo‘yilgan [66. B. 115].

Shuningdek, ijodxonasida Toshkentdagi uyidan keltirilgan buyumlar va kitoblar namoyish etilgan. Muzeydagi 4 mingdan ortiq kitoblarga ega kutubxonasida ijod stoli, soat, radio, mebel jihozlar joylashtirilgan. Sh.Rashidovning memorial va yodgorlik muzeylari ochilganiga ko‘p vaqt bo‘lmasa-da, turli hududlardan tashrif buyuruvchilar soni ortib bormoqda. Muzey materiallari O‘zbekistonning sovet davri tarixi haqida katta ma’lumot beradi.

Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy yodgorlik muzeyi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining serqirra siyosiy faoliyati, oliyjanob insoniy fazilatlari, mustaqillik me’mori sifatida Vatanimiz tarixida o‘chmas va yorqin iz qoldirdi. U nafaqat O‘zbekiston, balki butun jahon miqyosida katta hurmat va obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lgan ulkan shaxs va davlat arbobidir.

